

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESINIŇ
QARARI**

2023 - yil 2 - mart

80-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri "Temir yol" MFY hududidan
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2023-yil 1-fevraldagi 1/133-sonli buyurtma xatini inobatga olib, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Nukus shahri "Temir yol" MFY hududidagi shahar hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan 0,3680 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasining yangi ma'muriy binosini qurish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratib berilsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (B.Torebekov)ga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda:

- ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

- ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

- ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin boshlash vazifalari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari E.Atashov zimmasiga yuklansin.


**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 2 martdagi
80-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Nukus shahri "Temir yol" MFY hududidan Qoraqalpogiston Respublikasi Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi yangi ma'muriy binosi qurilishi uchun tanlangan bo'sh turgan yer uchastkasi
TARXI
M 1:1500




Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchastkasi Nukus shahri Temir yol MFY da joylashgan

Koordinatalari:

1)	42°26'20.13"C	59°38'35.34"B
2)	42°26'22.01"C	59°38'37.71"B
3)	42°26'21.00"C	59°38'39.17"B
4)	42°26'19.11"C	59°38'36.80"B

Shartli belgilar

 Ajratilgan yerlar chegarasi

Yer uchastkasi maydoni: 0.3680(ga)

Yer fondi: Shahar zahira yerlari.

Ta'qiqlanganligi: Yo'q

Yer turi: qishloq xo'jaligida foydalanmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan.

Foydalanish maqsadi: Qoraqalpogiston Respublikasi Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi yangi ma'muriy binosi qurilishi uchun.

Kadastr nomeri: 23:17:01:16:03:3885